

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KATTA VA TAYYORLOV GURUH BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

N. J. Abdusamatova

Namangan davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida katta va tayyorlov guruh bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning metodik asoslari hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini baholashning kognitiv, kommunikativ, motivatsion va shaxsiy-irodaviy mezonlari asosida integratsiyalashgan metodlar tizimi ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari integrativ yondashuv bolalarning bilish faolligi, muloqot madaniyati, o'quv motivatsiyasi va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, maktab ta'limiga tayyorlash, katta va tayyorlov guruhi, kognitiv rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, shaxsiy-irodaviy sifatlar, tajriba-sinov ishlari, metodik ta'minot.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ, НАПРАВЛЕННОЙ НА ПОДГОТОВКУ ДЕТЕЙ СТАРШЕЙ И ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУПП К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Н. Ж. Абдусаматова

Наманганский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В статье раскрываются методические основы подготовки детей старшей и подготовительной групп к школьному обучению на основе интегративного подхода, а также механизмы организации опытно-экспериментальной работы. В ходе исследования разработана система интегративных методов, основанная на когнитивных, коммуникативных, мотивационных и личностно-волевых критериях готовности детей к школе. Результаты опытно-экспериментальной работы подтвердили эффективность интегративного подхода в развитии познавательной активности, коммуникативной культуры, учебной мотивации и навыков самостоятельной деятельности детей.

Ключевые слова: интегративный подход, подготовка к школе, старшая и подготовительная группы, когнитивное развитие, коммуникативная компетентность, мотивация, личностно-волевые качества, опытно-экспериментальная работа, методическое обеспечение.

METHODOLOGY FOR CONDUCTING EXPERIMENTAL RESEARCH AIMED AT PREPARING CHILDREN OF SENIOR AND PREPARATORY GROUPS FOR SCHOOL EDUCATION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

N. J. Abdusamatova

Namangan State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

This article discusses the methodological foundations of preparing children of senior and preparatory preschool groups for school education based on an integrative approach and describes the mechanisms for conducting experimental research. The study developed a system of integrative methods based on cognitive, communicative, motivational, and personal-volitional criteria of school readiness. The results of the experimental work confirmed that the integrative approach positively influences children's cognitive activity, communication skills, learning motivation, and independent learning abilities.

Keywords: integrative approach, school readiness, senior and preparatory groups, cognitive development, communicative competence, motivation, personal-volitional qualities, experimental research,

methodological support.

Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimining boshlang'ich poydevori bo'lgan maktabgacha ta'limning sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta'minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarning jismoniy, ma'naviy, aqliy va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhitni yaxshilash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Konsepsiyada: «...maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim» [1]ligi ta'kidlangan. Bu esa tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlashning psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirish, integrativ yondashuv asosida katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

USULLAR.

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida [2] bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim dasturini majburiy umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida kiritish;

- bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim dasturlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va boshqa ijtimoiy soha obyektlarida to'liq yoki qisqa muddatli guruhlarda amalga oshirish;

- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlarida bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etish;

- 2027–2028-o'quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarida ta'lim-tarbiya olgan bolalarga bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik to'g'risida davlat namunasidagi elektron sertifikat berilishi hamda ushbu ma'lumotlar umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomada qayd etilishi, maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ustuvor vazifalari sifatida belgilanishi ham tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi. Shu sababli zamonaviy sharoitda bolaning maktabga tayyorligi muammosi yanada ahamiyatli bo'lib, maktab faoliyatini quyidagi jarayonlar doirasida o'rganish, tahlil qilish va chuqur izlanishlar olib borish zarurati shakllandi:

- birinchidan, maktab yoshiga yetgan va maktabga ilk bor qadam qo'yayotgan bolalarga qo'yilayotgan talablar sezilarli darajada oshdi. Bu talablar bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan;

- ikkinchidan, boshlang'ich sinflarda metodist-innovatorlar tomonidan ishlab chiqilgan yangi o'quv dasturlarining joriy etilishi natijasida bolalar o'z tayyorgarlik darajalariga muvofiq turli dasturlar asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa moslashuvchan va individual yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda;

- uchinchidan, o'zgarayotgan ijtimoiy sharoitlar sababli bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnashgan yoki uy sharoitida tarbiyalanganligiga qarab, maktabga tayyorgarlikning turli darajalariga ega bo'lmoqda. Bu farqlarni hisobga olish ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, M. A'zamova [3] o'z izlanishlari doirasida bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini hamkorlikka asoslangan pedagogik tafakkur doirasida tashkil etish va ularda

didaktik materiallar ustida hamkorlikda ishlash, topshiriqlarni birgalikda bajarish, o'zlashtirilgan axborotlarni tahlil qilish hamda ijodiy layoqatlarini rivojlantirishga erishilishini tadqiq etgan.

Z. O. Rashidova [7] tadqiqotlari 6–7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosini tadqiq etishga qaratilib, tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlash bilan birga, jamiyatga moslashtirish, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yishga yo'naltirish, turli ijtimoiy murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish yuzasidan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

F. A. Abdug'opirova [6] o'zining "Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning didaktik tizimi" mavzusidagi tadqiqot ishida kognitiv rivojlanishni uchta yo'nalishda tahlil qilib o'tadi. Bu aspektlar fikrlash, til va o'rganishdir. Fikrlash orqali bolalar xayolida aniq hodisalar haqida fikr yurita oladilar, narsa va jarayonlarni bevosita kuzatish bo'yicha mustaqil bo'ladilar hamda ularda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Til jamiyatda aloqa va o'zaro fikr almashishning muhim vositasi hisoblanib, bolalarga hodisalarni aks ettirishga xizmat qiladi. O'rganish — bu harakat reaksiyasidir va u orqali yangi kognitiv faoliyat shakllanadi. Bolalikda o'rganish va uning samaradorligi yuqori bo'ladi.

M. D. Tursunboyeva [8] tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda MTT tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlash uchun yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribaga ega bo'lishlari kerakligi, bunda ular MTTda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerakligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, tadqiqotchi ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq bo'lishi, bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'lishi, chunki bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlari va kattalar jamoasidan notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tishi uning hayotida muhim o'rin tutishi deya ta'kidlanadi.

M. Akramovning [4] "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanmasida bolalarni maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorlash, bolaning maktab ta'limiga ta'sir etuvchi omillar, bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini tekshirishning metod va usullari, bolaning maktab ta'limiga tayyorligi tahlili, bolalar bog'chasi va oilaning bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi o'rnini, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning hamkorlikdagi ishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotchi L. Abidova [5] kuzatishlari asosida quyidagi fikrlarni bildirdi: "Bu yoshdagi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini o'rganishda quyidagi psixologik-pedagogik nazorat ishlarini olib borish mumkin:

1. Bolani qurshab turgan tashqi muhitga munosabati, bilimlar zaxirasi.
2. Maktabga bo'lgan munosabati va rivojlanganlik darajasi.
3. Mustaqil fikrlashi va nutqining rivojlanganlik darajasi.
4. Emotsional-obrazli tasavvurning rivojlanganlik darajasi.
5. Qo'l harakati motorikasining rivojlanganlik darajasi".

Tadqiqotchi sifatida ta'kidlash joizki, mazkur yondashuv integrativ ta'lim tamoyillari bilan bevosita uyg'unlashadi. Chunki bu mezonlar alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda bolaning umumiy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ayniqsa, nutq, tafakkur va emotsional tasavvurning birgalikda tahlil qilinishi bolada shakllanayotgan kompetensiyalarning yaxlitligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, Abidova tomonidan taklif etilgan mezonlar tizimini zamonaviy talablar asosida yanada boyitish maqsadga muvofiq. Jumladan, unga kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari hamda elementar refleksiv faoliyat belgilarini ham kiritish zarur, deb hisoblaymiz. Chunki bugungi kunda maktabga tayyorgarlik faqat individual rivojlanish ko'rsatkichlari bilan emas, balki bolaning ijtimoiy muhitda o'zini tutishi va o'z faoliyatini anglay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta va tayyorlov guruh bolalarini maktab ta'limiga sifatli tayyorlash bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekanligini inobatga olgan holda, ushbu jarayonda

integrativ yondashuvdan foydalanish bolalarning intellektual, nutqiy, ijtimoiy-emotsional hamda ijodiy rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishining maqsadi katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning metodik tizimini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishdan, shu asosda bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi samarali texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat etib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari bir nechta obyektlarda amalga oshirildi. Xususan, tarbiyachilarning malakasini oshirish kursida "Mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari" o'quv modulini o'qitishda; 5–7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan "Savodxonlikka tayyorlash", "Elementar matematika", "Nutq o'stirish", "Badiiy adabiyot", "Nutqni rivojlantirish", "Fan va tabiatshunoslik" asoslari, ekologiya, jismoniy tarbiya, musiqa kabi ta'limiy faoliyatlarda integrativ yondashuv orqali; shuningdek, ota-onalarning bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasidagi pedagogik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar-treninglar va konsultatsiyalar jarayonida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar hal etildi:

- maktab ta'limiga tayyorlashda integrativ yondashuvni yoritadigan o'quv-metodik manbalar ("Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti talablari)ni o'rganish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish;

- katta va tayyorlov guruh bolalarining maktabga tayyorgarligiga doir so'rovnomalar va turli mavzu suhbatlarini tashkil etish;

- integrativ mashg'ulotlar (integrallashgan STEAM + neyrolingvistika yondashuvi texnologiyasi) orqali maktabga tayyorlash jarayonini tashkil etish, bolalar egallagan bilim va kompetensiyalarning samaradorlik mezonini aniqlash;

- katta va tayyorlov guruh bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasi bo'yicha mezonlar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlari Namangan, Farg'ona va Jizzax viloyatlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borildi. Tajriba-sinovda jami 408 nafar maktabgacha yoshdagi bola tanlab olingan bo'lib, tajriba guruhida 208 nafar va nazorat guruhida 200 nafar bola ishtirok etdi. Hududlar kesimi bo'yicha esa Namangan viloyatidan 112 nafar, Farg'ona viloyatidan 130 nafar, Jizzax viloyatidan 166 nafar, jami 408 nafar katta va tayyorlov guruhidagi bolalar respondent sifatida qatnashdi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlariga 60 nafar tarbiyachi va 45 nafar ota-onalar ham jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida katta va tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorlik darajasini aniqlash uchun kognitiv, kommunikativ, motivatsion hamda shaxsiy-irodaviy mezonlar asos qilib olindi. Mazkur mezonlar bo'yicha bolalarning rivojlanish dinamikasini ta'minlash maqsadida integrativ yondashuvga asoslangan metodlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Xususan, kognitiv mezonni rivojlantirish maqsadida "Kognitiv navigatsiya" metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali bolalarga "Maktabga borish yo'li", "Kasblar olami", "Fasllar sayohati" kabi mavzularda muammoli vaziyatlar taqdim etildi. Masalan, bolalarga maktabga borish uchun bir nechta yo'nalishlar tasvirlangan xarita berilib, eng qulay yo'lni tanlash va tanlov sabablarini izohlash topshirig'i berildi. Natijada bolalarda taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va muammoni hal etish ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatildi.

"Intellektual provokatsiya" metodi asosida bolalarga noodatiy savollar va ziddiyatli vaziyatlar taklif etildi. Masalan, "Agar daraxtlar yuradigan bo'lsa, nima bo'lardi?", "Agar maktabda o'qituvchi bo'lmaganida, bilimni qanday olgan bo'larding?" kabi savollar orqali bolalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi rag'batlantirildi. Ushbu metod motivatsion mezonning "savol berishga qiziqishi", "bilim olishga intilishi" kabi ko'rsatkichlarining o'sishiga xizmat qildi.

"Syujetli kognitiv modellash" metodi asosida tashkil etilgan faoliyatda bolalar "Kelajakdagi maktab", "Bir kunlik o'qituvchi", "Kutubxonadagi sarguzasht" kabi syujetli o'yinlarda ishtirok etdilar. O'yin davomida ular muammoli vaziyatlarni hal qilish, o'z fikrlarini asoslash va guruh bilan hamkorlik qilish ko'nikmalarini namoyon etdilar. Bu esa kognitiv va kommunikativ mezonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Kommunikativ mezonni rivojlantirishda "Refleksiv muloqot" metodidan foydalanildi. Mashg'ulot

yakunida bolalarga “Bugun nimani o‘rganding?”, “Qaysi topshiriq sizga qiyin bo‘ldi?”, “Do‘stingizga qanday yordam berdingiz?” kabi savollar berildi. Bolalarning o‘z fikrlarini izchil ifodalashi, tengdoshlarini tinglashi va mulohaza yuritishi natijasida nutqiy faollik hamda muloqot madaniyatining rivojlanishi kuzatildi.

“Vizual-intellektual integratsiya” metodi asosida rasmlar, sxemalar, belgilar va didaktik kartochkalardan foydalanildi. Mazkur jarayonda bolalar rasmlar ketma-ketligi bo‘yicha hikoya tuzdilar, predmetlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqladilar hamda mantiqiy zanjirlarni davom ettirdilar. Natijada axborotni tahlil qilish, vizual ma‘lumotlarni anglash va fikrni vizual ifodalash ko‘nikmalari rivojlandi.

“Interaktiv tafakkur maydoni” metodidan foydalanish orqali kichik guruhlarda hamkorlikdagi topshiriqlar tashkil etildi. Masalan, “Mening orzuimdagi maktab” mavzusida jamoaviy loyiha ishlab chiqildi. Bolalar o‘zaro fikr almashib, vazifalarni taqsimladilar va umumiy natijaga erishishga harakat qildilar. Ushbu faoliyat kommunikativ va motivatsion mezonlar bo‘yicha yuqori natijalarni ta‘minladi.

Shaxsiy-irodaviy mezonni rivojlantirish maqsadida “Integrativ loyiha-konstruktor” metodidan foydalanildi. Bolalar turli konstruktorlar, qog‘oz materiallari va tasviriy vositalar yordamida “Mening maktabim”, “Kelajak sinfi”, “Bilimlar shaharchasi” kabi loyihalarni yaratdilar. Loyiha faoliyati davomida ular mustaqil qaror qabul qilish, vazifalarni rejalashtirish, mas‘uliyatni his qilish va yakuniy natijani baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tajriba yakunida tajriba guruhidagi bolalarda atrof-olam haqidagi tasavvurlar, mantiqiy fikrlash, nutqiy faollik, bilim olishga qiziqish, mustaqillik va hamkorlik ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Bu holat integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tizimning katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga samarali tayyorlash imkoniyatlarini tasdiqladi.

Natijada integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘limiy faoliyat bolalarning maktab ta‘limiga tayyorligini tavsiflovchi barcha mezonlar bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarni ta‘minladi hamda rivojlanish trayektoriyasining izchil va tizimli shakllanishiga xizmat qildi. Tadqiqot obyektlaridagi tanlangan tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan avvalgi hamda keyingi natijalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, jadvallarda aks ettirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga integrativ yondashuv asosida tayyorlash darajalarini baholash bo‘yicha tajribadan avvalgi (TA) va tajribadan keyingi (TK) ma‘lumotlarni umumiy jadvali

Tajriba sinov obyektlari	Tajriba guruhi (208 nafar respondent)						Nazorat guruhi (200 nafar respondent)					
	yuqori		o‘rta		past		yuqori		o‘rta		past	
	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
Namangan viloyati MTT Taj.gr. – 52 Naz.gr. –60	16	25	19	20	17	7	16	17	18	19	26	24
Farg‘ona viloyati MTT Taj.gr. – 66 Naz.gr. –64	17	31	20	25	29	10	18	16	19	21	27	27
Jizzax viloyati MTT Taj.gr. – 90	24	44	23	34	43	12	21	23	22	22	33	31

Naz.gr. –76												
Jami umumiy o‘rtachalar	57	10 0	62	7 9	89	2 9	55	5 6	59	6 2	8 6	82

Tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi va yakunlovchi bosqichlarida o‘tkazilgan nazorat so‘rovnomalarining qiyosiy tahlillari biz olib borgan tajriba ishlarining natijaliligini hamda samaradorligini isbotladi.

XULOSA

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayoni faqat alohida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning intellektual, kommunikativ, motivatsion va ijtimoiy-irodaviy rivojlanishini kompleks ta’minlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, integrativ yondashuv katta va tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta’limiga tayyorligini shakllantirishning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida maktab ta’limiga tayyorlikning kognitiv, kommunikativ, motivatsion va shaxsiy-irodaviy mezonlari asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari integrativ yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. O‘yin, muloqot va bilish faoliyatining o‘zaro uyg‘unligi asosida tashkil etilgan ta’limiy faoliyat bolalarda atrof-olam haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, mantiqiy fikrlash, nutqiy faollik, mustaqillik, hamkorlik va o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari integrativ yondashuv asosida boyitilgan metodik ta’minot bolalarning rivojlanish trayektoriyasini izchil tashkil etish, ularning maktab ta’limiga psixologik, ijtimoiy va intellektual jihatdan tayyorligini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatdi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mazmundagi mashg‘ulotlarni tashkil etish, bolalarning faol ishtirokiga asoslangan innovatsion metodlardan foydalanish va rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish maktab ta’limiga tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi.

Demak, integrativ yondashuv asosida katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashning metodik ta’minotini takomillashtirish bolalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’limiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash hamda uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlarida samarali o‘qishi uchun zarur pedagogik asoslarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qaroriga 1-ilova.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son «Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. A‘zamova M. N. Maktabga tayyorlov guruhlar tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fals. doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent. – B. 11. – 48 b.
4. Akramova M. T. *Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi*: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2021. – 86 b.
5. Abidova L. Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatlari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2015.
6. Abdug‘opirova F. A. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning didaktik tizimi: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 54 b.

7. Rashidova Z. O. 6–7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 52 b.
8. Tursunboyeva M. D. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati. – 2021. – № 12(91)-1. – B. 626–631.